Farg‘ona tumani axborot-kutubxona markazi

O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim tavalludining 111 yilligiga bag‘ishlab

uslubiy-bibliografik obzor

Farg‘ona tumani

2026-yil

Kirish

O‘zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya Isroilova hayoti va ijodi xalqimiz ma’naviy merosining ajralmas qismiga aylangan. Zulfiya ijodi inson qalbi, mehr-oqibat, ona timsoli, Vatan muhabbati va sadoqat g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Shoira o‘z she’rlarida ayol qalbining nozik kechinmalari, sabr-matonati va ezgulikka ishonchi haqida samimiy va ta’sirchan kuyladi. Uning satrlarida hayotga muhabbat, inson qadri va yuksak ma’naviyat aks etadi. Zulfiyaxonim nafaqat shoira, balki fidoyi jamoat arbobi ham edi. U uzoq yillar adabiy-ijtimoiy faoliyat olib borib, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatladi. Uning nomiga ta’sis etilgan Davlat mukofoti bugun ham iste’dodli qizlar uchun yuksak e’tirof ramzidir. Shoiraning hayoti sabr va sadoqat namunasi bo‘ldi. Turmush o‘rtog‘i, mashhur shoir Hamid Olimjon vafotidan so‘ng ham u ijoddan to‘xtamadi, aksincha, qalbidagi dardni she’rga aylantirib, xalq muhabbatiga sazovor bo‘ldi. Zulfiyaxonimning ijodi bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning she’rlari kitobxonni ezgulikka, mehr-oqibatga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Zulfiya — nafaqat bir shoira, balki o‘zbek ayolining nafosat va matonat timsolidir

BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil qirg‘oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.

Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya», yakkash so‘roqlab
Meni she‘rga o‘rab suqlanib boqqan?

O‘rik gullariga to‘nmaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho‘x na‘shidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham gaming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutoqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorgi burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo‘shqin zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Zulfiya Isroilova 1915 yil 1-martda Toshkentda hunarmand-degrez oilasida tug‘ilgan. Otasi zahmatkash temirchi edi, onasi Xadicha opa esa juda ko‘p qo‘shiq, ertak, afsona va dostonlarni bilar va bolalarga aytib berardi. 1928 yilda boshlang‘ich maktabni tugallab,Toshkent xotin-qizlar pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirdi. Ana shu yillardan boshlab, Zulfiyaning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi kuchaydi. Navoiy, Pushkin, Abdulla Qodiriy, G‘ayratiy asarlarini, Uyg‘un va Hamid Olimjon kabi yozuvchi shoirlarning ijodini qiziqib kuzatdi. O‘qish va o‘rganish o‘z navbatida uning qo‘liga qalam olishga ilhomlantirdi. Shu tariqa badiiy iste’dodi namoyon bo‘la boshladi. 1930 yildan boshlab “Ishchi”, “Turkiston” gazetalari, “Bolalar”, “Yangi yo‘l” jurnallarida yosh shoiraning dastlabki she’rlari ko‘rinadi. 1932 yilda o‘n sakkiz yoshli shoiraning birinchi she’rlar to‘plami- “Hayot varaqlari” bosilib chiqadi. Zulfiya doimo izlanishda, o‘qishda o‘z ijodini yanada serqirrali bo‘lishi uchun sidqidildan harakat qildi. 1933 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil oldi. 1935-1938 yillarda esa A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida aspiranturada o‘qiydi. 1938-1940 yillarda Respublika bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyotida muharrir bo‘lib ishlaydi. Zulfiyaning ilk she’rlari o‘zining hayotbaxsh ruhi bilan kitobxonlarni o‘ziga jalb etdi. U ikkinchi jahon urushi arafasida taniqli shoirlar qatoridan o‘rin olgan edi. Zulfiya urushdan keyingi yillarda tinch ijodiy mehnatda kishilarning matonati va qahramonligining yuksak namunalarini ko‘rsatayotgan zamondoshlari haqida, tinchlik va do‘stlik haqida kitobxonlarga manzur bo‘lgan ajoyib she’rlar yaratdi. Shoiraning “Xulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Dugonalar bilan suhbat” (1953) kabi to‘plamlaridagi she’rlarida o‘zbek qizi – Zulfiyaning ovozi ona qalbini, ayol nazokatini, inson orzusini kuylagan otashin she’rlari faqat O‘zbeksitondagina emas, butun Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham kitobxonlar diqqatini jalb qildi. O‘zbekiston xalq shoirasi, taniqli jamoat va davlat arbobi Zulfiya, xorijiy mamlakat taraqqiyparvar yozuvchilari va davlat arboblarining mehmoni sifatida juda ko‘p mamlakatlarda bo‘lgan edi. O‘zbekhind do‘stligi, O‘zbekiston Jamiyatining prezidenti sifatida o‘zining butun ijodi va ijtimoiy faoliyati bilan tinchlik ishiga, xalqlarning do‘stligi va birodarligi ishiga katta hissa qo‘shib kelgan. Zulfiya asarlari ko‘plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya “Xalqaro Javoharlal Neru” (1968), “Nilufar” (1971) mukofotlari hamda “Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti” (1970) laureati, shuningdek, u Bolgariyaning “Kirill va Mefodiy” (1972) ordeniga sazovor bo‘lgan. Zulfiya A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, M.Vohif, L.Ukrainka, M.Dilboziy, S.Kaputikyan, E.Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, E.Bagryana va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiyaning qudratli ovozi, mayin va mehr to‘la qo‘shiqlari, o‘zbek xotin-qizlarining baxtiyor taqdirini, tinchlikka va ozod mehnatga tashna insonlarning orzularini ifodalagan haroratli she’rlari hozirgi kunda ham

baland yangramoqda. O‘zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e’tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etdi. Toshkentdagi maydonlardan biriga Zulfiya haykali o‘rnatildi, ko‘chalardan biriga esa Zulfiya nomi berilgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek, Zulfiya ijodi – millionlab kishilarga, muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda, sadoqat va vafo ramzi bo‘lib yashamoqda. Kamalak yetti rangda yetmish xil jilolanib, barchani maftun qilgandek, Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab “Bahor keldi seni so‘roqlab she’riy to‘plami nashrga tayyorlandi. Undan shoira ijodidagi eng sara she’rlar o‘rin olgan. “Sadoqat saroyining mangu malikasi Zulfiyaxonim yoxud Hamid Olimjonning so‘ngsiz armoni” kitobida yozuvchi Nurali Qobilning shoira Zulfiyaxonimga bo‘lgan cheksiz hurmati bois dunyoga kelgan. Unda yozuvchining shoira bilan birgalikda faoliyat yuritgan yillari esga olinadi. Kitob so‘ngida Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimning eng sara she’rlaridan namunalar keltirilgan. “Tingla bulbul” she’riy to‘plami XX asr o‘zbek she’riyati osmonida chaqnab chiqqan Zuxro yulduzdir.Ushbu kitobda ardoqli shoiramizning she’rlari jamlangan. “Yana bahor keldi sizni so‘roqlab” esse va lirik she’rlar to‘plami kitobida Hamid Olimjon va Zulfiya nomlari tasavvurimizda “Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”, Oygul bilan Baxtiyor kabi afsonaviy tarzda jonlanardi. Bu afsona doston, ko‘rib, his etib turgan, haqiqatga aylangan ertak edi. U bolalar va o‘smirlar uchun ham ko‘plab to‘plamlar nashr ettirgan. Shoira 1975 yilda 60 yoshga to‘lishi munosabati bilan Xalqlar do‘stligi ordenini olishga sazovor bo‘ldi. U sobiq Ittifoq Davlat mukofoti laureati va Mehnat Qahramoni hamdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyundagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta‘sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida"gi PF-2326-sonli Farmonida barkamol avlodini voyaga yetkazish, ular orasidan iqtidorli qizlarning adabiyot, san‘at, ta‘lim fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, shuningdek, keng ko‘lamli islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtiroklarini rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan.

Yildan yilga "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti nomzodligiga ro‘yxatga olinayotgan qizlar sonining oshayotganligi fan, madaniyat, san‘at va sport sohalarini rivojlantirishga o‘zining ulkan hissasini qo‘sha oladigan iqtidorli va iste‘dodli qizlar ko‘payayotganligidan dalolat beradi. Atoqli shoira 1996 yil avgustda 81 yoshida vafot etdi. O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova she’rlari o‘zbek adabiyoti g‘aznasi va kitobxonlar qalbida nodir xazina misol saqlanib qoldi.

Xulosa

Zulfiya Isroilova — milliy she’riyatning muhimi va xalqaro adabiy maydonda tanilgan shoir. Uning ijodi nafaqat milliy ruhiyat, balki umumbashariy inson qadr-qimmatlarini targ‘ib etadi. Uning she’rlarini o‘rganuvchi maqolalar, tahlillar va monografiyalar adabiyotshunoslikda katta ahamiyatga ega.

Foydalandan adabiyotlar:

1. Zulfiya

Bahor keldi seni so‘roqlab: she’rlar / Zulfiya Isroilova. ─ Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. ─ 192 b.

2. Zulfiya

Tingla bulbul: / Zulfiya. – Toshkent: «Kamalak-PRESS», 2019. 160 b.

3.Nurali Qobil

Sadoqat saroyining mangu malikasi Zulfiyaxonim yoxud Hamid Olimjonninig so‘ngsiz armoni.(Esse va she’rlar) – T.: «Sano-standart»nashriyoti, 2020. – 128 b

Tuzuvchilar: D.Alobidinova

H.Mirzaaxmedova